





Respublika paxta to'qimachilik klasterlari tomonidan ishlab chiqarilgan paxta mahsulotlarini sertifikatlashtirish, texnik chigit yog'dorligini aniqlash va yog'-moy korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan yog'-moy mahsulotlarini sifatini aniqlash.

Sertifikatlashtirish jarayoni


Paxta tolasini sertifikatlashtirish



Texnik chigitni yog'dorligini aniqlash



Standart namunalar tayyorlash



Mutaxassislarni tayyorlash o'quv kurslari





Respublika paxta to'qimachilik klasterlari tomonidan ishlab chiqarilgan paxta mahsulotlarini sertifikatlashtirish, texnik chigit yog'dorligini aniqlash va yog'-moy korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan yog'-moy mahsulotlarini sifatini aniqlash.

Paxta tolasi, momig'i, kiyim kechak va mebelbob momiq va texnik chigitini sertifikatlash, paxta tozalash korxonalarida kunlik ishlab chiqarilgan texnik chigitni sifat ko'rsatkichlari va YaMR analizatorida yog'dorligini aniqlash faoliyatini olib boradi. Shu bilan birga, paxtaning yangi istiqbolli seleksiya navlarini yaratayotgan seleksioner olimlarning ilmiy izlanishlari uchun tolaning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, paxta mahsulotlarini standart namunalari tayyorlash va ta'mirlash, hamda paxta mahsulotlarini sertifikatlash sohasida mutaxassislarni tayyorlash xizmatlarini amalga oshiradi.

Paxta mahsulotlarini sertifikatlash uchun namunalar tnlab olish me'yoriy xujjat talablariga muvofiq, akkreditlangan laboratoriya xodimlari tomonidan paxta tozalash korxonalarida amalga oshirilishi bilan bir o'rinda, to'dadagi toylarni vaznini o'lchash ishlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi.

Paxta tolasini uzunligi, mustahkamligi, uzunlik bo'yicha bir xilligi va pishganligini aniqlash yuqori samarador sinov uskunalari - HVI tizimlarida hamda nav va sinfini klassyorlik organoleptik usulda paxta tolasi to'dasidagi har bir toyi bo'yicha baholanadi va sinov natijalariga ko'ra muvofiqlik sertifikati yoki inspeksiya dalolatnomalarini buyurtmachiga taqdim etiladi.

(Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlari: tolaning tip, 1/32 dyuym koddagi tolaning shtapely uzunligi, nav, sinf, mikroneyr ko'rsatkichi, o'rtacha uzunligi, yuqori o'rtacha uzunlik, nur qaytarish koeffitsienti, solishtirma uzilish kuchi, sarg'ishlik darajasi, Tresh kod (iflos aralashmalar maydoni) - iflos aralashmalar soni, uzilishdagi uzayish, uzunlik bo'yicha bir xillik indeksi, kalta tolalar indeksi)

Paxta momig'i sertifikatlashda namunalari to'dadagi har bir toy bo'yicha navi va sinfi tashqi ko'rinish standart namunalari bilan solishtirish, shtapel uzunligi (tipi) shtapel tortish usulida orqali klassyorlik usulida aniqlanadi.

Birja savdolari orqali realizatsiya qilishda paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilgan paxta texnik chigitini nav, sinfini aniqlash sinovlari natijalari bo'yicha sinov bayonnomalari taqdim etiladi hamda ishlab chiqarish jarayonlarini baholanib muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtiriladi.

Shu bilan qatorda paxta texnik chigit yog'dorlik ko'rsatkichlari aniqlanadi, paxta mahsulotlari sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan tashqi ko'rinish namunalari tayyorlash malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Inspektsiyaning paxta mahsulotlarini klassifikatori, HVI tizimlariga xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va boshqa zarur bo'lgan malaka oshirish kurslari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu kurslarda Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmanistondan mutaxassislar malaka oshirib, tajriba o'rganganlar.

Markaz Amerika Qo'shma Shtatlarida faoliyat olib boradigan "International Cotton Committee" Xalqaro paxta maslahat qo'mitasi bilan hamkorlik ishlarini amalga oshiradi, paxta sinov laboratoriyalari Qo'mita tomonidan tashkil etiladigan CSITC laboratoriyalararo qiyoslov sinovlarida, Germaniyada joylashgan "ICA Bremen, The Global Centre for Cotton Testing and Research" Bremen Xalqaro paxta assotsiatsiyasining "International Cotton Association Bremen" tomonidan o'tkaziladigan laboratoriyalararo qiyoslov sinovlarida ishtirok etadi. Shu bilan birga, Markaz Polshadagi Gdinya Xalqaro Paxta Assotsiatsiyasiga a'zo mamlakat ro'yxatiga qo'shish to'g'risidagi ijobiy xulosasi va a'zolikni tasdiqlovchi xalqaro sertifikat olingan.